

SHARQ MUTAFAKKIRLARI O'QITUVCHI IMIDJI HAQIDA

*Meyliyeva Lobar Nurmatovna**QASHQADARYO VILOYATI PYaMO`MM**Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining o'qituvchi imidji haqidagi fikrlarni bayon etilgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylarning asarlarida o'qituvchi haqidagi qarashlari, Alisher Navoiyning esa pedagog faoliyati borasidagi fikrlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: yosh avlod tarbiyasi, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, o'qituvchi-ustoz, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy.

Annotation. This article describes the opinions of Eastern thinkers about the image of a teacher. In the works of Muhammad al-Khorazmi, Abu Nasr Farabi and Abu Rayhan Beruni, information is given about the views of the teacher, and Alisher Navoi's views on the activity of the pedagogue.

Key words: Education of the young generation, Muhammad al-Khorazmi, Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Alisher Navoi, teacher-teacher, Husayn Vaiz Koshifi, Abdulla Avlani, Mahmudhoja Behbudi.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqтира olishi;

- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir soʻzning boalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishish.

Alisher Navoiy oʻz davrining ayrim maktabdorlari ega boʻlgan sifatlar, xususan, qattiqqoʻllik, taʼmagirlik va johilliklarni qoralar ekan, oʻqituvchining maʼnaviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qoʻyadi. Xususan, «mudarris kerakki, gʻarazi mansab boʻlmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas koʻrgazmasa va olgʻirlik uchun gap-soʻz va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun boʻlmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga oʻrin boʻlmasa. ... Yaramasliklardan qoʻrqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, oʻzini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir boʻlsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat boʻlib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».

Ayni oʻrinda oʻqituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini taʼkidlab oʻtadi: «Uning ishi odam qoʻlidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir toʻda bolaga ilm va adab oʻrgatadi, koʻrkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u toʻdada fahm-farosati ozlar boʻladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday boʻladi. Har qanday boʻlsa ham, yosh bolalarga uning haqqi koʻpdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yoʻlida kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,
Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila».

Oʻqituvchi kasbining nozikligi, masʼuliyatligi va murakkabligi hamda sharafli ekanligi toʻgʻrisida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qoʻyiladigai talablar, fazilatlariga oid qarashlar, munosabatga kirshish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida oʻz ifodasini topgan. Sharq maʼnaviy-madaniyatining xilma-xil jihatlarini, ayniqsa Uygʻonish davrida juda rivojlangan boʻlib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy va boshqa koʻplab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning maʼnaviy-axloqiy kamolotida muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim **Forobiy** (873-950) muallimning ijtimoiy hayotda tutgan oʻrni va uning oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida ibratli gʻoyalarni ilgari surgan.

Abu Nas al-Forobiy oʻrta asr sharqining buyuk qomusiy olimi boʻlib, u 873 yildan hozirgi Qozogʻiston teritoriyasidagi Farob shaharchasida tugʻildi, keyinchalik Toshkentda va Buxoroda yashab taʼlim oldi. X asr boshlarida ilmga chanqoq boʻljak olim Oʻsha paytda madaniyat va ilm markazi boʻlgan xalifalik

poytaxti Bag'dodga boradi. Bu yerda u turli xil fan sohalari bilan shug'ullanadi, ko'p tillarni o'rganadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 70 tilda gaplasha olgan. Forobiy bu yerda xristian olimlari Abu Bashar Marta ibn Yunusdan Yunon falsafasi va tilini, Yuxanna inb Xaylondan tabobat va mantiq ilmini o'rgandi. "Muallim as-soniy" - ikkinchi muallim (Aristoteldan so'ng) nomini oldi, umrining so'ngi yillarini Damashq shahrida o'tkazdi. Forobiy fanning turli sohalariga bag'ishlangan 160 dan ortiq asarlar yozdi. Biroq uning ijodini belgilovchi narsa uning falsafiy qarashlari hamda pedagogik qarashlari ifodalangan asarlaridir.

«O'qituvchi, - deydi Forobiy, - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarni to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», -deb ta'kidlaydi. Mutafakkir o'qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlariga xolisona, odilona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. Shuning uchun mazkur sharhlar, ilmiy ilovalar, teran fikrlar, ibratli mulohazalar ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) – notiqlik, adabiyotshunoslik, fikh, ilmi nujum, tarix, hisob ilmi, uymakorlik va ganchkorlik va axloqqa doir asarlar yaratgan mutafakkirlardan biridir. Koshifiyning uqtirishicha insonni ta'lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash bilan aqliy qobiliyatni o'stirish mumkin. Buning uchun bolaga yaxshi ta'lim-tarbiya berish uni yaxshi sifatlarini o'stirishga, uni nojo'ya xatti-harakatlardan qaytarish lozim.

Alloma o'qituvchilarga bolalarni tarbiyalashda quyidagi usullarni qo'llashni ilgari surgan: nasihat, tanbeh berish, amru farmon, majburiyat qoyish. Koshifiy o'z pedagogik qarashlarida bolalarga mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor berib, ota-onalar va muallimlardan shuni talab etadi. Bu masalad oilaviy va tashqi mhit muhim o'rin tutadi. Uning fikricha «murabbiy bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalarida qat'iy turishi, ularga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi. Balki xilvat joyda bolaga gapirish darkor. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim. Chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir».

Tarbiyachilik san'atida ustozni nihoyatda ulug'lab shunday yozadi:

Faromush qilmagilsan haqi ustod,
Ki oningdindurur ilmingga bunyod.
Agar ustodinga mehring yo'q o'ldi,
Degilkim ilmim mani mavq o'ldi.
Kishikim qildi ustodiga xizmat,
Zamoni o'tmadi tobt ul izzat.

Koshifiy yaxshi ustozdan olgan pand-nasihatga quloq solmay behuda yo'llarda yurgan farzand o'zini-o'zi rasvo qiladi, Deya nasihat beradi.

Nasriddin Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» degan asarida shunday deydi: «O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib

bo'lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi dozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchi o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1885-1919) – adabiyot, tarix, siyosatshunoslik, dramaturgiyani chuqur egallagan. U ma'rifat, ilm-fan, badiiy ijod sohasidagi butun faoliyatida millatimiz madaniyati, ma'naviyatining ravnaqi uchun kurashib, buyuk siymo sifatida shuhrat qozongan holda ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarni bayon etdi. Ustoz ta'lim-tarbiya haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatga erishishning birdan-bir yo'li o'lkada o'zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm-fanni rivojlantirish kerakligini bayon etadi. Kattalar va muallimlarga murojaat qilib, ularni yoshlarni bilimli qilishga, mehnatga jalb etishga da'vat etadi.

M.Behbudiy o'qituvchilarga qarata ta'lim-tarbiya ishlarini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'liq holda olib borishni talab etadi.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», - deydi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo mutafakkirlari va o'zbek ma'rifatparvarlari o'qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql-zakokatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yo'lida jonbozlik, qat'iyatlilik ko'rsatishi, o'quvchilarning ruhiy dunyosiga to'g'ri yo'l topa olishi, ularga ta'sir o'tkazishi, vijdonli, samimiy, odobli, nazokatli, ishchan, mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur ekanligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tadilar.